Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
<b>Ametova Nasiba Danilovna</b>	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
<b>Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna</b>	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
<b>Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li</b>	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
<b>Raxmonova Aziza Tolibovna</b>	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
<b>Umarov Elshod G'ulom o'g'li</b>	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
<b>Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li</b>	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
<b>Икромовна Ханифа Одилловна</b>	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
<b>Kamalova Jamila</b>	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
<b>Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
<b>Ne'matov Oybek Ismatullayevich</b>	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
<b>Туйчиев Комилжон Лазизович</b>	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b>	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
<b>Umarov Abdulquddus Abdilxatovich</b>	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
<b>Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович</b>	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
<b>Усманова Дилфузахон Иброхимовна</b>	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
<b>Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li</b>	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
<b>Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich</b>	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari .....	1174
<b>Qilichev Umid Ibadullayevich</b>	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari .....	1181
<b>Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Islom iqtisodiyotining mohiyati .....	1197
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
<b>G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li</b>	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
<b>Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li</b>	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
<b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
<b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili .....	1222
<b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish .....	1228
<b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari .....	1232
<b>Raxmanov Ilxom Xurramovich</b>	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
<b>Рафиева Зарина Хусановна</b>	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
<b>Akhmedov Doniyorbek</b>	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
<b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
<b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari .....	1261
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari .....	1266
<b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati .....	1272
<b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
<b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi .....	1282
<b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida) .....	1286
<b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами .....	1294
<b>Мансурова Севара Мансуровна</b>	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
<b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>	



# KORXONALARNING INVESTITSIYA FAOLLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQLARNING RAG'BATLANTIRUVCHI ROLINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI



Ilyasova Barno Axmadovna

Toshkent moliya instituti o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya:** Maqolada korxonalarning investitsiya faolligini oshirishga tatbiq etilayotgan soliq imtiyozlarining mazmun-mohiyati, ularni qo'llashning amaldagi holati, yirik soliq to'lovchilar tomonidan qo'llanilgan imtiyozlar tahlili, imtiyozlarni qo'llash amaliyotida kuzatilayotgan ba'zi munozarali holatlar ko'rib chiqilgan hamda mazkur sohaga istiqbolli o'zgarishlar kiritish maqsadida tegishli xulosa va tavsiyalar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsiya, investitsion faollik, soliq, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi, qulay biznes muhiti, soliq to'lovchilar, investitsion faollikni oshirish uchun soliq rag'batlari, soliq ma'murchiligi, tadbirkorlik subyektlari, soliq hisoboti, preferensiyalar.

**Abstract:** The article reveals the essence of tax incentives used to increase the investment activity of enterprises, the current state of their application, an analysis of the incentives used by large taxpayers, some controversial situations observed in the practice of applying incentives, and also the corresponding conclusions and recommendations for making promising changes in this.

**Key words:** investments, investment activity, tax, tax benefits, tax rate, favorable business environment, taxpayers, tax benefits to increase investment activity, tax administration, business entities, tax reporting, preferences.

**Аннотация:** В статье раскрыта сущность налоговых льгот, применяемых для повышения инвестиционной активности предприятий, современное состояние их применения, проведен анализ льгот, используемых крупными налогоплательщиками, некоторые спорные ситуации, наблюдаемые в практике применения льгот, а также сформулированы соответствующие выводы и рекомендации для внесения перспективных изменений в этой сфере.

**Ключевые слова:** инвестиции, инвестиционная деятельность, налог, налоговые льготы, налоговая ставка, благоприятная бизнес-среда, налогоплательщики, налоговые льготы для повышения инвестиционной активности, налоговое администрирование, субъекты хозяйствования, налоговая отчетность, преференции.

## KIRISH

Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalar muhim ahamiyatga ega bo'lib ular iqtisodiy o'sish sur'atlarini hamda unda ro'y berayotgan tarkibiy o'zgarishlarni belgilaydi, korxonalarning raqobatbardoshligini va aholi turmush darajasini oshirishga, jamiyatdagi ishsizlik darajasi pasayishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, budget daromadlari bazasini shakllantirish iqtisodiyotning real sektoridagi investitsiya faolligiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan O'zbekistonda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan, 70 milliard AQSh dollari xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish, investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha, "pastdan-yuqoriga" tamoyili asosida, yangi tizimni yo'lga qo'yish, 2026-yilgacha xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalariga 14 milliard AQSh dollariga teng investitsiya jalb etish choralarini ko'rish <sup>[1]</sup> belgilab olindi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya faolligini oshirish uchun bevosita faol investitsiya siyosatini yuritishga e'tibor qaratilmoqda.





## ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda korxonalarning investitsiya faolligini ta'minlashda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirishni o'rganish nisbatan yangi yo'nalish bo'lib, bu boradagi tadqiqotlar ilk izlanishlar hisoblanadi.

Xorijlik olimlar R. I. Zimenkov, B. Garrett, G. Jereffi, R. Kaplinski, M. Lorens, P. Maskell tomonidan korxonalarning investitsiya faolligini ta'minlash bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarida investitsion jozibadorlik, investitsiya faolligi masalalari o'rganilgan.

Milliy investitsion siyosat va mintaqalar investitsion salohiyati maktabining o'zbek iqtisodchi olimlari D. G'ozibekov, N. Karimov, Sh. Mustafakulov, N. Haydarov, N. Kuziyeva, F. Dodiye, O. Astanakulov, I. Madaminov, U. Gafurova va boshqalar erishgan ilmiy natijalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Neokeynschilik vakillari (E. Domar, F. Peru, R. Xarrod, E. Xansen) ishlab chiqarish vositalarida yangi investitsiyalar va iste'mol talabini shakllantirishda davlatning rag'batlantiruvchi roli muhim ahamiyat kasb etadi degan fikrlarni ilgari surishgan [2].

Investitsiyalarning mazmun va mohiyatini ochib berishda D. G'ozibekovning fikriga ko'ra, ularning turli xil xatarlar va kutilayotgan daromadlar bilan bog'liqligini hamisha yodda tutmoq zarur. Investitsiya ana shu belgilari bilan boshqa mablag'dan farqlanib turadi [3].

T. Malikov soliqlarning investitsiya faolligiga ta'ciri haqida to'xtalib, "soliqlar yordamida tadbirkorlik faoliyatining u yoki bu tarmog'i rivojlanishiga ta'cir ko'rsatish mumkin"ligini [4] ta'kidlab o'tgan.

M. Zabaluyeva iqtisodiyot rivojlanishini rag'batlantirish – soliq to'lovchining ixtiyorida soliq to'langandan keyin qoladigan mablag'larni oshirish hisobiga erishiladi [5] deb ilmiy asoslab bergan.

Soliq Kodeksining 75-moddasiga muvofiq, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarga quyidagicha ta'rif berilgan: "...soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan, soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliq imtiyozlari" [6] deya ta'rif berilgan.

T. Malikov ta'kidlashicha, soliq imtiyozlari deganda soliq to'lovchining soliq majburiyatlari hajmining to'liq yoki qisman qisqarishi, to'lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishi tushuniladi [7].

A. Jo'rayev va Sh. Toshmatovlarning ta'rifiga ko'ra, soliq imtiyozlari – soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha turli xil yengilliklar bo'lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to'liq yoki qisman va boshqa ko'rinishlarda berilishi mumkin [8].

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, absrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya, alohida jadval, grafik usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot usullari korxonalarning investitsiya faolligini ta'minlashda soliqlarning rolini oshirish bo'yicha xulosa va takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJADAR

Bugungi kunda ishlab chiqarish darajasidan boshlab to milliy iqtisodiyot darajasigacha investitsiya faoliyatini boshqarishning puxta o'ylangan, fundamental nazariyalarini yaratishga ehtiyoj sezilmoqda. Ushbu umumlashtiruvchi tavsiflar ya'ni "investitsion salohiyat" va "investitsion faoliyatning notijorat riski" ko'rsatkichlarining o'zaro nisbatidan kelib chiqib ifodalanadi. Bunda investitsiya salohiyat qanchalik yuqori bo'lsa va innovatsion faoliyat riski qanchalik past bo'lsa, investitsion jozibadorlik ham shuncha yuqori bo'ladi va buning oqibatida korxona investitsiya faolligi ham oshadi [9].

Investitsiya faolligi – mamlakat, tarmoq, hudud va korxonaning bozor faoliyatida strategik maqsadlarga erishishni ta'minlashga qaratilgan kapitalni shakllantirish va ulardan maqsadli foydalanish jarayonlarini aks ettiruvchi iqtisodiy munosabatlar majmuyidir.

Soliqqa tortishning tarixiga nazar soladigan bo'lsak, qadimgi dunyoda ham u o'zining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatgan. Qadimgi Yunoniston va Rimda iste'mol soliqlari undirilgan. Urushlar paytida qo'shimcha mablag' to'plash va yetishmovchiliklarni oldining olish vositasi sifatida vaqtincha mulkdan soliqlar undirish tartibi belgilangan. Keyinchalik ular boshqa aktivlarga ham qo'llanilgan. Yunonistonda erkin fuqarolar qullardan farqli soliq majburiyatlariga ega bo'lganlar va Rim imperiyasining soliq qonunlari fuqarolar va bosib olingan hududlar aholisi o'rtasida farqlangan [10].

Buyuk davlatchilikka asos solgan Amir Temurning davlatida ham soliqlarning ahamiyati yuqori bo'lgan va bu o'ziga xos qonunlar bilan tartibga solingan. Amir Temur tuzuklarida "Soliqlar davlatning iqtisodiy tayanchi va a namoyon bo'lishidir", [11] deb ta'kidlangan.



Agar Temur tuzuklarida berilgan soliqqa tortish tamoyillariga nazar soladigan bo'lsak, ularning asosini ham soliqqa tortishda beriladigan imtiyozlar egallaydi. Unga muvofiq, soliq to'lovchilardan soliqlarni aralash undirish soliq siyosatining diqqat markazida turadi. "Temur tuzuklarida" keltirilishicha: "Kimki biron sahrani obod qilsa yoki poliz qilsa, yoki biron bog' ko'kartirsa yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili esa soliq qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig'ilsin". Bundan ko'rinadiki, soliqlardan beriladigan imtiyozlar bevosita davlatni (xazinani) iqtisodiy qudratiga bog'liqligi, unda soliq imtiyozlari bilan budget (xazina) daromadlarini shakllantirishning o'zaro bog'liqligi aks ettiriladi.


Hozirgi kunda soliq imtiyozlari olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u iqtisodiy barqarorlikka erishish va investitsiyalarni rag'batlantirish uchun ishlatilishi mumkin. Soliq imtiyozlari yordamida korxonalarning investitsiya va innovatsiya faollik darajasini tartibga solish, shuningdek, aholi bandligini oshirishni, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarilishini rag'batlantirish mumkin. Davlat yangi mahalliy va xorijiy investitsiyalarni, innovatsiyalarni rag'batlantirish va soliq xarajatlari miqdorini tartibga solish uchun investitsiya muhitini yaxshilashdagi rolini hisobga olishi kerak.

Iqtisodiyotda investitsion faollik samaradorligi, davlat iqtisodiyotini rivojlantirish, hududlar iqtisodiyotini ichki imkoniyatlar asosida kengaytirishni taqozo etmoqda. Demak, investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi, uning taraqqiyotini ta'minlovchi, ish o'rinlarini yaratuvchi, aholining daromad manbayini shakllanishiga hissa qo'shuvchi kuch ekan, barcha imkoniyatlarni ishga solib iqtisodiyotga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirish lozim.

Korxonalarning investitsiya faolligini oshirishda soliqlar orqali tartibga solishning muhim instrumenti bu imtiyoz va preferensiyalar hisoblanadi. Ushbu instrumentlardan foydalanib iqtisodiyotning alohida tarmoqlari va ishlab chiqarish sohalariga soliq imtiyozlari berish yo'li bilan rivojlantirishni rag'batlantirishdir.

Joriy yilning 9 oyida mamlakatimizda jami 112 674 ta xo'jalik yurituvchi subyekti soliq imtiyozlaridan foydalangan bo'lib, ular uchun qo'llanilgan soliq imtiyozlarining umumiy qiymati 17.3 trillion so'mni tashkil etadi.

Shu bilan birga 2367 ta korxona moliyaviy xizmatlar bo'yicha 10,7 trln so'mlik QQSsiz operatsiyalarni amalga oshirgan. Korxonalarning eksport operatsiyalari, xalqaro tashishlar va aholigan kommunal xizmatlar ko'rsatgan 7 000 tasiga 20,7 trln so'm miqdorida QQSga "nol" stavka qo'llanilgan. Xalqaro ekspertlar xulosasiga asosan, QQS bo'yicha moliyaviy xizmatlar va nol stavka hisobi alohida yuritiladi.



1-rasm: Korxonalarga soliq turlari bo'yicha berilgan jami imtiyoz miqdori <sup>[12]</sup>

Korxonalarga soliq imtiyozi 9 turdagi soliqlar bo'yicha berilgan vaularning salmoqli qismi qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) hissasiga to'g'ri keladi (52,6%). Keyingi o'rinlardan foyda solig'i (14,9%), yersolig'i (9,6%), ijtimoiy soliq (7,5%), aksiz solig'i (6,2%), mol-mulk solig'i (5,8%), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (3,1%), aylanmadan olinadigan soliq (0,3%) va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar (0,02%) joy olgan.

Ushbu imtiyozlardan sohalar kesimi bo'yicha tog'-kon sanoati, bank, transport, farmatsevtika, kommunal xizmat ko'rsatish, neft-gaz qazib chiqarish, energetika, sug'urta, tibbiyot, qurilish, dam olish, sport vaboshqa yo'nalishlarda faoliyat yuritayotgan korxonalar samarali foydalangan.

Mazkur davrda ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi 71 841 ta yuridik shaxs tomonidan 29,2 trln. so'mdan ortiq soliq to'langan. Shundan 13,5 trln dan ziyodi 20 ta soliq to'lovchi hisobiga to'g'ri keladi. Ularning tovar aylanmasi 121,7 trln so'm, qo'llagan soliq imtiyozlari miqdori esa 1,2 trln so'mni tashkil etgan.

**1-jadval: Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar tomonidan soliq turlari bo'yicha budjetga tushum miqdori <sup>[12]</sup>**

№	Soliq turi	Tushumlar miqdori (mlrd so'm)	foizda
1	Qo'shilgan qiymat solig'i	4365,3	(32,2%)
2	Aksiz solig'i	2 722,8	(20,0%)
3	Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	1 520,7	(11,2%)
4	Foyda solig'i	1444,3	(10,6%)
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	759,8	(5,6%)
6	Ijtimoiy soliq	699,2	(5,1)
7	Mol-mulk solig'i	511,2	(3,8%)
8	Er solig'i	255,2	(1,9%)
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	81,6	(0,6)
10	Boshqa soliqlar	1216,9	(9,0)

Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslardan 9 xil turdagi soliq bo'yicha tushumlarning salmoqli qismi qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) hissasiga to'g'ri keladi (32,2%). Keyingi o'rinlardan aksiz solig'i (20,0%), er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (11,2%), foyda solig'i (10,6%), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (5,6%), ijtimoiy soliq (5,1%), mol-mulk solig'i (3,8%), yer solig'i (1,9%), suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (0,6%) va boshqa soliqlar (9,0%) joy olgan. Bu 20 ta yirik soliq to'lovchi ("Uzbekneftgaz" AJ, "Uzbat AO" AJ, "Uzauto Votors" AJ, "Issiqlik Elektr stabnsiyalari" AJ, "Buhoro Neftni qayta ishlash zavodi" AJ, "Navoiyazo" AJ, "Shurtan gaz Kimyo Majmuasi" MCHJ) va boshqalar hisobigato'g'rikeladi.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi 34 506 ta yuridik shaxs tomonidan 5,7 trln so'mdan ortiq soliq to'langan. Shundan 856,2 mlrd so'mi, ya'ni 15 %i 20 ta korxona hisobiga to'g'ri keladi. Ularning jami tovar aylanmasi 9,5 trln so'mdan ziyod, qo'llagan soliq imtiyozlari miqdori esa 50,8 mlrd so'mni tashkil etadi.

Ushbu davrda eng ko'p soliq to'lagan 20 ta korxona tomonidan soliq turlari bo'yicha qo'llanilgan soliq imtiyozlari hamda to'langan soliq tushumlari haqida quyidagi jadvalda ko'rib chiqamiz.

**2-jadval: Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar tomonidan budjetga tushgan soliq tushumi miqdori <sup>[12]</sup>**

№	Soliq turi	Tushumlar miqdori (mlrd so'm)	foizda
1	Qo'shilgan qiymat solig'i	439,6	(51,4%)
2	Foyda solig'i	127,6	(14,9%)
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	117,6	(13,8%)
4	Ijtimoiy soliq	113,3	(13,2%)
5	Mol-mulk solig'i	25,2	(2,9%)
6	Er solig'i	24,4	(2,8%)
7	Boshqa soliqlar	8,5	(1,0%)

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar 6 xil turdagi soliq tushumlari bo'yicha miqdorning salmoqli hissasi qo'shilgan qiymat solig'i QQS hissasiga to'g'ri keladi (51,4%). Keyingi o'rinlardan foyda solig'i (14,9%), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (13,8%), ijtimoiy soliq (13,2%), mol-mulk solig'i (2,9%), yer solig'i (2,8%), va boshqa soliqlar (1,0%) joy olgan. Bu ko'rsatkich 20 ta yirik soliq to'lovchi ("Discover invest" MCHJ, "Yangi zamon bino" MCHJ, "Agromir Building" MCHJ, "Absolute Business Trade" MCHJ, "Premium Village" MCHJ, "Golden Hous Development" MCHJ, "AJ Trest-12", "MIMAR group" MCHJ) va boshqalar hisobiga to'g'ri keladi.

**XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda soliq sohasini takomillashtirish borasida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, budjetga soliq tushumini oshirish hamda imtiyozlarni taqdim qilish borasidagi muammolarning mavjudligi soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonining yettinchi maqsadi bo'lmish, taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini



ta'minlash bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida, "Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, soliq sohasida qo'shilgan qiymat solig'ini amaldagi 15 foizdan 12 foizgacha, telekommunikatsiya, bank va moliya kabi sohalarda foyda solig'ini amaldagi 20 foizdan 15 foizgacha tushirish hamda xizmat sohasidagi tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida, yangidan tashkil etiladigan savdo komplekslari va mehmonxonalar uchun mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha imtiyozlar berish" <sup>[1]</sup> kabi bir qancha vazifalar belgilab berildi. Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli ijrosi mamlakatimizda soliq imtiyozlarini samarali usullarini joriy qilish, shu bilan birga, salbiy tashqi ta'sirlarga ega sohalarga manfiy imtiyozlar qo'llash ya'ni ekologiyaga zarar yetkazadigan faoliyat turlari uchun soliqlarni baland qilib qo'yish vaberilgan imtiyozlar uchun soliq to'lovchini hisobdorligini belgilash, soliq imtiyozlarini adolatlilik va tenglik tamoyiliga asoslab ishlab chiqish uni amaliyotga tatbiq etish borasidagi ilmiy tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Yuqoridagi tadqiqotlar natijasida, sohaning istiqbolli rivojlanishiga qaratilgan quyidagi taklif va tavsiyalar shakllantirildi:

- Korxonalarning investitsiya faolligini ta'minlashda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini amaldagi uslubiyoti tahlili asosida iqtisodiy, moliyaviy, korporativ boshqaruvning samarali faoliyati kabi omillar bilan belgilanuvchi korxona investitsion imkoniyatlaridan samarali foydalanishni aniqlash maqsadida investitsiya faolligiga soliq rag'batlarini ta'siri va natijaviy jihatlarini hisobga olgan holda baholash uslubiyoti ishlab chiqiladi;
- Iqtisodiy o'sish, modernizatsiya va diversifikatsiya darajasi, ishbilarmonlik muhiti, davlatning erkin va maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish siyosati va iqtisodiyotning ochiqqligini kompleks hisobga oluvchi koeffitsiyentlar bilan ayrim holda baholash va omillarni tizimli tadqiq qilish orqali korxonalarning investitsion faolligini ta'minlashda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirishga asoslangan "korxona investitsiya faolligining soliq salohiyatini prognoz qilish" bo'yicha uslubiy tavsiyalar beriladi;
- Korxonada investitsion salohiyat va innovatsion rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqib, uni samarali boshqarishning ustuvor omillarini aniqlash imkonini beruvchi iqtisodiy rivojlanish istiqbollari va u korxonalar investitsiya faolligini ta'minlashda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirishga ta'sirini baholash uslubiyoti ishlab chiqiladi;
- Korxonalarning investitsiya faolligini ta'minlashda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirish borasidagi ilg'or xorijiy tajribalardan O'zbekiston sharoitida foydalanish istiqbollari ilmiy asoslab beriladi;
- Turli omillarning o'zaro aloqadorligini tadqiq etishning yangi konseptual sxemasi asosida korxonalarning investitsiya faolligini ta'minlashda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolining o'rta va uzoq muddatli vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan kompleks tadbirlari tizimi ishlab chiqiladi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy taklif va tavsiyalardan kelib chiqqan holda, ularni chuqur o'rganib, tahlil qilish va asoslab amaliyotga tatbiq etish yaqin kelajakda o'z natijasini beradi.

#### Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. // <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Keyns Dj. M. Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi. – Moskva, Gelios ARV, 1999. – 352.
3. G'ozibekov D. G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: Moliya, 2003. – 329 b.
4. Malikov T. S. Soliqlarvasoliqqatortishningdolzarbmasalalari. – T.: Akademiya, 2002. – 204 b.
5. Забалыева М. А. "Налоговое стимулирование инвестиций в инновационное развитие экономики России". –М.: "ИНФРА", 2005. –213 б.
6. Soliq Kodeksi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son.
7. Malikov T. Soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – T.: 2000. – 76 bet.
8. Jo'rayev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. (2009) Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. – T.:NORMA. – 184 bet.
9. Tursunov K. B., Rajabov N. R. Investitsion muhit jozibadorligini boshqarishni takomillashtirish. Monografiya. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021.
10. Normurzayev U. X. Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. –T.: "Iqtisodiyot", 2023. – 242 bet.
11. "Temur tuzuklari ". – T., 1993 yil. – 98 bet.
12. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasining rasmiy veb sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi – [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.